



O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 2 / ISS: 2 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА



INSURANCE

A collage of images related to insurance and finance, including a globe, bar charts, a calculator, gears, and a car.

TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECON-



“O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI” JURNALI TAHIR KENGASHI A'ZOLARI

1. Teshabayev To'lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, falsafa fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo'jayevich (Kengash raisi o'rinnbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o'rinnbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich ("O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi" AJ bosh direktori, falsafa fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, fan nomzodi, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O'zbekiston sug'urta bozori professional ishtirokchilar uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishslash kafedrasи mudiri, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasи professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Moliya" kafedrasи mudiri, falsafa fanlari doktori, prof.)
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasи mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasи professori, falsafa fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A'zamjonovich ("Kafil Sug'urta" AK sug'urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O'zbekiston madaniyat va san'at instituti professori, falsafa fanlari dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullahayevich (TDIU Beshta tashabbus markazi kafedra mudiri, t.f.n.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU "Moliya bozori va sug'urta" kafedrasи mudiri, falsafa fanlari doktori).
20. Mutualova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrasи professori, falsafa fanlari doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasи professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G'iyozovich (TDIU Magistratura bo'yicha dekan o'rinnbosari, t.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU "Yashil iqtisodiyot" kafedrasи professori v.b., falsafa fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU "Sug'urta" kafedrasи professori v.b.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU "Marketing" kafedrasи dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU "Sug'urta" kafedrasи dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo'latovich (TDIU "Sug'urta" kafedrasи dotsenti, t.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o'g'li (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasи dotsenti, t.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasи dotsenti, t.f.n.).

№	MUNDARIJA	Page
1.	MILLIY SUG'URTAS BOZORINING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Qo'lloshev Qamariddin Mansurovich</i>	4
2.	MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PENSIYA VA HAYOT SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi</i>	8
3.	SUG'URTA MEXANIZMLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI VA IMKONIYATLARI <i>Ko'chimov Abdujamil Hamraqulovich, To'g'izova Malika Soxib qizi</i>	11
4.	YANGI O'ZBEKİSTONDA AHOLINI IJTIMOIY HIMoyalash borasida davlat tibbiy SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	14
5.	O'ZBEKİSTON SUG'URTA BOZORIDA HAYOT SUG'URTA SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	17
6.	TAKAFUL: ISLOMIY SUG'URTANING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI <i>Xudoyerberdiyev Umid Murodovich</i>	20
7.	GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIK SHAROITIDA JAHON SUG'URTA BOZORIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR <i>Xalikov Umid Raxmatullaevich</i>	24
8.	SUG'URTA TASHKIOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Umarova Gulnora Akromovna</i>	28
9.	ISLOMIY MOLIYALASH: TAMOYLLARI, TUZILISHI VA ISTIQBOLLARI <i>Yarashova Vasila Kamalovna, Yuldashtkhujayev Saidusmonkhuzha Botir ugli</i>	30
10.	BUDJET TASHKIOTLARIDA ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI VA UNGA QO'YILADIGAN CHORA-TADBIRLAR <i>Ashirova Gulchehra Abdug'aniyevna</i>	33
11.	MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING MAMLAKAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI <i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	36
12.	SANOAT TARMOG'INING IQTISODIY SALOHIYATINI BAHOLASHDA EKONOMETRIK USULLAR VA OMILLAR <i>Kasimov Azamat Abdukarimovich</i>	39
13.	TADBIRKORLIK SUBYEKTALARINING RENTABELLIGINI BAHOLASHDA EBITDA ASOSIDA BALLI REYTING TIZIMINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI <i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	42
14.	O'ZBEKİSTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li</i>	48



MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING MAMLAKAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI

Toshaliyeva Saodat Toxirovna

Termiz davlat universiteti dotsenti,

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss2/272

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatni rivojlanirishda mintaqaviy iqtisodiyotning ahamiyati o'rganilgan. Xususan, mamlakat hududining iqtisodiy mintaqalarga ajratilishidagi omillar va ularning mohiyati yoritib berilgan. Mazkur omillar asosida O'zbekiston hududlari iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari bo'yicha iqtisodiy mintaqalarga ajratilib, ularning asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatning rivojlanishida mintaqaviy iqtisodiyotning o'rni ochib berilgan hamda uni yanada rivojlanirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, mintaqqa, iqtisodiy mintaqalar, hududlar iqtisodiyoti, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish.

Abstract: This article explores the significance of the regional economy in the development of the country. In particular, it reveals the factors underlying the division of the country's territory into economic regions and explains their essence. Based on these factors, the territories of Uzbekistan have been divided into economic regions according to their socio-economic development characteristics, and their main indicators have been analyzed. The article also highlights the role of the regional economy in national development and proposes recommendations for its further advancement.

Keywords: economy, region, economic regions, territorial economy, socio-economic development.

Абстрактный: В данной статье изучается значение региональной экономики в развитии страны. В частности, раскрываются факторы, лежащие в основе деления территории страны на экономические регионы, и их сущность. На основе этих факторов территории Узбекистана были разделены на экономические регионы в соответствии с особенностями социально-экономического развития, и проанализированы их основные показатели. Также освещается роль региональной экономики в развитии страны и разработаны предложения по ее дальнейшему развитию.

Ключевые слова: экономика, регион, экономические регионы, экономика территорий, социально-экономическое развитие.

Kirish(Введение/ Introduction)

Mamlakatlarning geografik joylashuvi, tabiiy resurslar bazasi, ijtimoiy munosabatlar va ularning rivojlanish darajasi hamda shakllanishi bo'yicha iqtisodiy faoliyat turlari har xil bo'ladi. Boshqacha aytganda, mamlakat hududlarining iqtisodiy ixtisoslashuv yo'nalishlari turlicha bo'ladi. Ya'ni, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bir mamlakatdagi har xil hududlarning imkoniyatlari turlicha bo'ladi. Masalan, qishloq ho'jaligi rivojlangan hududlar, sanoatlashgan hududlar, xizmatlar sohasi rivojlangan hududlar va boshqalar. Ixtisoslashuvi va sharoitlari yaqin bo'lgan hududlar birlashib mintaqqa iqtisodiyotini tashkil etadi.

Demak, davlatning iqtisodiy rivojlanishida mintaqaviy iqtisodiyotlar muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribalari ham shuni ko'rsatadiki, mamlakatda iqtisodiy islohotlarni mintaqalar darajasida amalga oshirish maqsadiga muvofiq. Chunki, mintaqaviy islohotlarning eng asosiy maqsadi mamlakat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hududlararo darajasini mumkin qadar yaqinlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Zero, belgilangan maqsadlarga eng avvalo iqtisodiyotni jadal rivojlanirish orqali bu esa ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri joylashtirish va mintaqalar imkoniyatlari hamda o'ziga xos xususiyatlarini to'g'ri baholash orqali samarali yuritiladigan islohotlarga bog'liqdir.

Shu boisdan, keyingi davrlarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlanirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida PF-158-son Farmoni [1] qabul qilingan bo'lib, unda hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish (48-maqsad), hududlarning investitsion jozibadorligini yanada oshirish (49-maqsad), hududlarni kompleks rivojlanirish (60-maqsad) kabi qator muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash va mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlanirish sohada chuqur ilmiy tadqiqotlar

olib borishni taqozo etmoqda va bular mazkur tadqiqot mavzusining dolzrb masalalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar sharhi (Обзор литературы/Literature review)

Mamlakatda mavjud har bir mintaqqa o'zining tabiiy-demografik salohiyati, iqtisodiyotining tarmoqlar tarkibi va rivojlanganlik darajasi, tashqi iqtisodiy aloqalardagi ishtirotiga bilan bir-biridan farq qiladi. Mintaqalarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanganlik yuqorida keltirilgan sharoit va omillardan tashqari bozor iqtisodiyotining rivojlanishi va joylashishini ta'minlab turuvchi omillar bilan ham aloqadordir [2].

Iqtisodchi A.S. Soliyev va boshqalarning fikricha, mintaqalar bo'yicha ishlab chiqarishni joylashtirishning "qulayligi" ko'p jihatdan uning arzonligi, arzonligini esa asosan transport xarakatlarining kamaytilishli bilan izohlaydi [3]. Zero, ishlab chiqarishni rivojlanirish va joylashtirishda nisbiy afzallik (D.Rikardo) qonuni [4] mavjud.

Yana bir manbada mintaqaviy iqtisodiy o'sish, ishsizlik, ishlab chiqarish omillarining bir-biridan har xil masofada joylashgan mintaqalar orasidagi harakati muammolari ekonometrik modellar to'plamidan foydalananidan mintaqaviy makroiqtisodiyotning tahlil mavzusi hisoblanadi va hududlarda ro'y berayotgan jarayonlarning mohiyatini tushunishga va tegishli mintaqaviy iqtisodiy siyosatni shakkantirishga yordam beradi [5].

A.Qulmatovning ta'kidlashicha, barqaror rivojlanish mintaqaviy tizimining ayni vaqtida amal qilish va yangi sifatlarga ega bo'lish uzunligi va uzlusizligiga xavf soladigan, turli zararli omillarni bartaraf qilish va yuqori darajada cheklashga qaratilgan har xil turdag'i murakkab, moslashuvchan ta'sirlar butun majmuuni qo'llagan holda o'z tarkibi va xossalaring nisbatan o'zgaruvchan rivojlanishini bildiradi [6].

Mintaqalar iqtisodiyotini rivojlanirmsandan, islohotlarni chuqurlashirmsandan milliy iqtisodiyotni rivojlanirish mumkin emas. Chunki, aynan mintaqalar milliy iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlarini, unga xos xususiyatlarini ko'p jihatdan belgilab beradi. Bunda mintaqalarda mavjud tabiiy resurslar, demografik vaziyat va inson

resurslari, ma'muriy-hududiy tuzilmalar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [7].

Fikrimizcha, mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanishida yuqoridagi omillar bilan bir qatorda mintaqadagi xorijiy investitsiyalar, chet el korxonalar ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, xorijiy korxonalar va investorlar o'zining asosiy maqsadi bo'lgan yuqori foyda olish ilinjida o'z mamlakatlaridagi innovatsiyalarni ham olib kelishadi.

T.A. Agapova va S.F. Sereginalarning fikricha milliy tegishliligidan qat'iy nazar mazkur mamlakatning iqtisodiy hududida iqtisodiy manfaat markaziga ega bo'lgan barcha iqtisodiy subektlar (korxonalar, uy xo'jaliklari) rezident hisoblanishadi [8].

Shu boisdan, mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanishi butun mamlakat iqtisodiyotining barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlaydi. Albatta, bunda ilm-fan va texnik evalyusiyaning o'rni ham muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi (Методы/Methods)

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda rasmiy statistik ma'lumotlar, statistik kuzatish, taqqoslama tahlil, sintez, mantiqiy fikrash, jadval va grafik, solishtirma tahlil, statistik usullaridan keng foydalanilgan. Statistik tahlil uchun O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты/Analysis and results)

O'zbekiston – Markaziy Osiyoning markazida joylashgan, boy tabiiy resurslar, tarixiy meros va demografik (dvident) salohiyatiga ega mamlakat hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida hududlar iqtisodiyotini maqsadli tashkil etish, ularni ixtisoslashtirish va mayjud resurslar va imkoniyatlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda O'zbekiston hududini bir nechta iqtisodiy mintaqalarga ajratish mumkin. Bunda geografik, demografik, iqtisodiy va ekologik omillar hisobga olinadi.

Boshqacha aytganda, O'zbekistonning iqtisodiy mintaqalarga ajratilishi quyidagi omillarga asoslanadi.

1. Tabiiy-geografik omillar:

- tabiiy sharoit: tog'li, vodiysi yoki cho'lli hududlarda joylashuvi;
- suv resurslari, iqlim, yer maydoni bo'yicha tafavutlar.

2. Iqtisodiy ixtisoslashuv:

- iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ixtisoslashuvi;
- resurslar tarkibi, ishlab chiqarish salohiyati va ishlab chiqarish tarmoqlarining mavjudligi.

3. Ishchi kuchi va aholi zichligi:

- aholi zich joylashgan hududlar, u yerda mehnat resurslari ko'p bo'lganligi sababli mehnat talab qildigan sohalar rivojlangan;
- kam aholi joylashgan hududlarda avtomatlashtirilgan sanoat tarmoqlarining rivojlanganligi.

4. Transport va logistika infratuzilmasi imkoniyatlari:

- mintaqalarning xalqaro va respublika ichki bozorlariga chiqish imkoniyati;
- avtomobil va temir yo'l tarmoqlari, aeroportlar va tranzit yo'naliishlar bo'yicha infratuzilma holati.

5. Infratuzilma va investitsiya salohiyat:

- elektr energiya ta'minoti, gaz va suv ta'minoti, internet va boshqa infratuzimalarning mavjudligi va holati;
- erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va boshqa imkoniyat (sharoitlarning mavjudligi).

6. Ekologik omillar:

- ekologik muammolar (qurg'oqchilik, cho'llanish, toza ichimlik suvi, tabiiy ofatlar) bo'yicha yondashuv.

7. Ma'muriy va tarixiy omillar:

- mintaqalarning tarixiy rivojlanishi, madaniyati va ma'muriy tuzilishi.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy jihatdan Toshkent shahri, o'n ikkita viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikalariga bo'linadi. Shuningdek, mamlakat hududlarini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish xususiyatlariga, ya'ni yuqorida keltirilgan omillarni hisobga oлган holda quyidagi 5 ta asosiy iqtisodiy mintaqalarga bo'linadi:

1. Toshkent shahri va Toshkent viloyati iqtisodiy mintaqasi bo'lib, unda sanoat, xizmat ko'rsatish va moliyaviy salohiyat yuqori;


2. Farg'on'a vodiysi iqtisodiy mintaqasi (Farg'on'a, Andijon, Namangan viloyatlari). Ushbu mintaqada qishloq xo'jaligi, ipakchilik va sanoat tarmoqlari rivojlangan bo'lib, yana bir jihat shuki, mehnat resurslari ko'p, ya'ni O'zbekistonning aholi jihatdan eng zich mintaqasi hisoblanadi;

3. Samarqand, Jizzax, Surxondaryo iqtisodiy mintaqasi. Mazkur mintaqaning xususiyatlari: qishloq xo'jaligi (go'sht, g'alla, uzum), transport va turizm salohiyati yuqori. Shu bilan birga Samarqand tarixiy va sayyoohlak markazi sifatida alohida ahamiyatga ega;

4. Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy iqtisodiy mintaqasi. Mintaqaga tabiiy boyliklar (gaz, neft, oltin)ga boy, sanoat va kimyo korxonalar keng rivojlangan;

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati mintaqasi. Ular Amudaryo bo'yida joylashgan, suv xo'jaligi va paxtachilikka ixtisoslashgan bo'lib, ekologik muammolar mavjud, xususan Orol dengizingin qurishi.

Rasmiy statistik ma'lumatlarga ko'ra, 2024-yilda mamlakatimizda YAIM hajmi 1454573,9 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu 2023-yil bilan taqqoslaganda 6,5 foizga o'sgan.



1-rasm. 2024-yilda YAIMni shakllantirishda hududlarning ulushi², %

2024-yilda respublika bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahri 19,3 foiz ulush bilan eng katta hissa qo'shgan bo'lsa, Toshkent va Navoiy viloyatlari 10,1 foiz va 8,1 foiz ko'rsatkichlari bilan keyingi o'rinnarni egallagan. Shuningdek, YAIM shakllanishida eng kam ulush Sirdaryo (1,9 %), Jizzax (3,0 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,1 %) hissalariga to'g'ri kelgan.

Xususan, Toshkent shahrida YAHM hajmi 281147,4 mlrd. so'mni tashkil etgan (o'sish sur'ati 10,4 %). Shuningdek, sanoat tarmog'ida 108,1 % (YAHM tarkibidagi ulushi 27,8 %), qurilishda 109,9 % (9,2 %) va xizmatlar sohasida 111,5 % (63,0 %) o'sish sur'atlari kuzatilgan. Aholi jon boshiga YAHM 91376,6 ming so'mni tashkil etib, 7,6 foizga o'sgan.

1-jadval

Hududlar	Yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi ³ , mlrd. so'm							
	2010	2012	2014	2016	2018	2020	2022	2024
O'zbekiston Respublikasi	78936,6	127590,2	186829,5	255421,9	473652,8	668038	995573,1	1454574
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2181,7	3561,6	5433,8	8568,3	18761	25523,4	35541,6	45658,5
Andijon	4497,3	7623,8	11872,3	16115,6	30513,9	42623,6	62981,4	90522,1
Buxoro	4651,6	7133,2	10228,8	14390,7	24883,4	35320	51728	71560,4
Jizzax	2215,3	3773,5	5635,5	7767,1	14168,2	20249,8	30367	43057,9
Qashqadaryo	6944,1	10872,1	14631,1	20163,9	30575,1	40829,7	57629,1	80658,3
Navoiy	4325,6	6528,8	9181,7	11959,3	23988,8	51800,6	71994,1	112797,8
Namangan	3364,4	5924,1	8852,9	12874,5	22193,7	32713,2	48513,7	68915,7
Samarqand	6585,8	9954,5	15477	23083,3	36320,9	47576	68988,6	99866,1
Surxondaryo	3394,7	6436,4	9213,2	12179,6	21229,4	27571,6	39201,8	54345,1
Sirdaryo	1688,1	2936,1	4115,4	6059,8	9602,2	14285,1	20155,6	28003,3
Tashkent	7631,1	12782,3	18729	23876,1	44280,2	70691,6	103244,8	146385,2
Farg'on'a	5417,5	9113	13549,5	18106,3	31814	43413,1	65516,9	91333
Xorazm	2888,6	4793,4	7313,7	10336,6	17763,1	23531,8	37474,3	51261
Toshkent shahri	10412	16681,2	24401,3	37164,3	72643	107474,4	172469,3	281147,4


Toshkent viloyatida YAHM hajmi 6,7 foizga o'sib, 146385,2 mlrd. so'mni tashkil etgan. Shuningdek, Navoiy viloyatida YAHM hajmi 117297,8 mlrd. so'mga yetib, uning o'sishi 7,7 foizni tashkil etgan.

YAIMda eng kam ulushta ega bo'lgan Sirdaryo viloyatida YAHM hajmi 28003,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 4,5 foizga ko'paygan. YAHMning o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 101,7 % (YAHM tarkibidagi ulushi – 32,6 %), sanoatda 106,9 % (27,3 %), qurilishda 100,3 % (7,6 %) va xizmatlar sohasida 106,9 % (32,5 %) kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari ta'sir qilgan. Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga YAHM hajmi 30359,2 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, bu 2023-yilga nisbatan 2,6 foizga o'sgan.

Xulosa va takliflar (Заключение/Conclusion)

Mazkur tadqiqot doirasida o'rganishlar, tahlillar, mahalliy va xorijiy olimlarning nazariy qarashlaridan kelib chiqib, iqtisodiyotning hududiy tarkibi bo'lgan mintaqaviy iqtisodiyot mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishida muhim hisoblanadi. Chunki, mintaqaviy iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar mintaqasi hududlarning yahlit ixtisoslashuvi va umumiy mujassamlashuvi jihatidan yuqori sinergetik samaradorlikka erishish imkonini ta'minlaydi. Ushbu yondoshuvni umumiyl model ko'rinishida quyidagicha ifodalash mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekiston iqtisodiy mintaqalarining mavjud resurslari, ehtiyojlari va raqobatbardosh ustunliklarini inobatga olgan



1-rasm. Mamlakatning rivojlanishida mintaqaviy iqtisodiyotning o'rni⁴
 holda ularni yanada rivojlantirishga qaratilgan istiqbolli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq:

- hududiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish va tarmoq klasterlarini samarali tashkil etish. Bunda "klaster nazariyasi" asosida tarmoqlararo kooperasiyani yo'iga qo'yish va innovasion faoliytni kuchaytirish lozim;

- har bir iqtisodiy mintaqqa uchun alohida rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish;

- mintaqalarda yuqori texnologiyali biznes-inkubatorlar va texnoparklar tashkil etish hamda ulardan "Triple Helix" modeli (universitet, davlat va biznes hamkorligi nazariyasi) asosida samarali foydalanish;

- mintaqalarda logistika infratuzilmasini modernizasiya qilish;

- demografik faol hududlarda mehnat bozori va ta'lif muvozanatini ta'minlash va h.k.

Hulosa qilib aytganda, O'zbekistonning iqtisodiy mintaqalarga ajratilishi – mamlakatning hududiy rivojlanish strategiyasining asosiy poydevori hisoblanadi. Har bir hududning o'ziga xos salohiyatini aniqlash va undan oqilona foydalanish, mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy notenglikni kamaytirish, investisiyaviy jozibadorlikni oshirish kabi vazifalar bu jarayonning muhim yo'nalishlaridir. Iqtisodiy islohotlarni mintaqalar bo'yicha to'g'ri yo'naltirilishi orqali mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/ References):

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sont Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
- Xoshimov P.Z., Jumayeva S.K. Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi holatining tahlili // Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansi, № 10, 2012, 34 b.
- Soliyev A.S. va boshq. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. – T.: "Universitet" 2003, 20 b.
- Siddiqui K. David Ricardo's Comparative Advantage and Developing Countries: Myth and Reality // International Critical Thought. Volume 8, 2018 - Issue 3. p. 426-452
- Armstrong H., Taylor J. Regional Economic Policy. 3 ed. - Wiley-Blackwell, 2000, 437 p.
- Qulmatov A.A. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanish omillari // Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansi 2020, 2(134), 153 b.
- Xolbekova F.R. Mintaqalar iqtisodiy o'sishini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar tahlili // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. No 3, may-iyun, 2020 yil. 116 b.
- Arapova T.A., Sergina C.F. Макроэкономика: Учебник. -7-е изд.перераб. и доп.-М.: Издательство "Дело и сервис", 2005. 25-с.
- <https://www.stat.uz>
- <https://lex.uz>